

SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA HOKIMIYAT LEGITIMLIGI VA UNING ZAMONAVIY MODEL (SULTON QOBUS TAJRIBASI)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-358-364>

Nasirova Nilufar Yuldashevna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xodimlar bo'limi boshlig'i
nilufarnasirova2017@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari ta'limotida hokimiyat legitimligi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk va Alisher Navoiy asarlarida hokimiyatning axloqiy, ijtimoiy va siyosiy asoslari ochib beriladi. Shuningdek, ushbu nazariy qarashlarning zamonaviy talqini sifatida Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida hokimiyat legitimligining amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Sharq siyosiy-falsafiy merosining zamonaviy siyosiy tizimlar barqarorligidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hokimiyat legitimligi, Sharq mutafakkirlari, siyosiy falsafa, ma'naviy legitimlik, liderlik.

ЛЕГИТИМНОСТЬ ВЛАСТИ В УЧЕНИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И ЕЕ СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ (ОПЫТ СУЛТАНА КАБУСА)

Аннотация: В данной статье анализируется проблема легитимности власти в учениях восточных мыслителей. В частности, рассматриваются взгляды Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk и Alisher Navoiy на моральные, социальные и политические основы власти. Также в качестве современной интерпретации данных теоретических положений анализируется модель управления Sulton Qobus ibn Said, где раскрываются практические механизмы обеспечения легитимности власти. В результате исследования обосновывается значимость восточного политико-философского наследия в обеспечении устойчивости современных политических систем.

Ключевые слова: легитимность власти, восточные мыслители, политическая философия, моральная легитимность, лидерство.

LEGITIMACY OF POWER IN THE TEACHINGS OF EASTERN THINKERS AND ITS MODERN MODEL (THE EXPERIENCE OF SULTAN QABOOS)

Abstract: This article analyzes the concept of political legitimacy in the teachings of Eastern thinkers. In particular, the views of Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, and Alisher Navoiy on the moral, social, and political foundations of authority are

examined. Furthermore, the governance model of Sulton Qobus ibn Said is analyzed as a modern interpretation of these theoretical principles, highlighting practical mechanisms for ensuring political legitimacy. The study demonstrates the relevance of Eastern political-philosophical heritage in maintaining stability in contemporary political systems.

Keywords: *political legitimacy, Eastern thinkers, political philosophy, moral legitimacy, leadership.*

KIRISH

Zamonaviy siyosiy tizimlarda hokimiyat legitimligi davlat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Siyosatshunoslikda legitimlik tushunchasi ko‘pincha huquqiy asoslar, institutlar faoliyati hamda saylov mexanizmlari orqali izohlanadi. Biroq tarixiy-sivilizatsion yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, legitimlik faqat formal-huquqiy omillar bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning ma‘naviy qadriyatlari, axloqiy me‘yorlari va tarixiy tajribasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Sharq siyosiy-falsafiy tafakkurida hokimiyat legitimligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu an‘anada rahbarning shaxsiy fazilatlari, xususan adolatparvarlik, donolik va xalq manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati hokimiyatning asosiy legitimlik manbai sifatida talqin qilinadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat va fazilatli rahbar konsepsiyasini ishlab chiqqan bo‘lsa, Nizomulmulk “Siyosatnoma” asarida davlat boshqaruvida adolat tamoyilining hal qiluvchi ahamiyatini asoslab beradi. Alisher Navoiy esa hukmdorning axloqiy mas‘uliyatini legitimlikning muhim omili sifatida ko‘rsatadi.

Mazkur nazariy qarashlar zamonaviy siyosiy tizimlarda ham o‘z aksini topmoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida ayrim davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hokimiyat legitimligi nafaqat institutsional mexanizmlar, balki ijtimoiy adolat, barqarorlik va xalq ishonchi orqali ham shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Sharq mutafakkirlarining hokimiyat legitimligi haqidagi qarashlarini tahlil qilish hamda ularning zamonaviy siyosiy amaliyotdagi ifodasini Sulton Qobus boshqaruvi misolida ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

Sharq mutafakkirlari ta‘limotida hokimiyat legitimligi normativ-axloqiy kategoriyaga asoslanadi. Bu yondashuvda hokimiyatning qonuniyligi faqat siyosiy kuch yoki institutsional mexanizmlar bilan emas, balki rahbarning shaxsiy fazilatlari va jamiyat oldidagi mas‘uliyati bilan belgilanadi.

Abu Nasr Forobiyning “fazilatli jamiyat” haqidagi qarashlari hokimiyat legitimligining axloqiy va ma‘naviy asoslarini tahlil qilishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, davlat boshlig‘i nafaqat siyosiy yetakchi, balki axloqiy yetuk shaxs bo‘lishi zarur¹. Rahbarning bilimdonligi, adolatparvarligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi hokimiyatning asosiy legitimlik manbai

¹ Forobiy A.N. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

hisoblanadi. Demak, Forobiy nazariyasida legitimlik — bu axloqiy mukammallik bilan chambarchas bog‘liq tushunchadir.

Nizomulmulk o‘zining “Siyosatnoma” asarida davlat barqarorligini adolat tamoyili bilan chambarchas bog‘laydi. Mutafakkirning fikricha, hukmdorning adolatsizligi jamiyatda norozilik kayfiyatining kuchayishiga hamda davlat boshqaruvi tizimining zaiflashishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, adolat nafaqat axloqiy mezon, balki siyosiy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim boshqaruv omili sifatida talqin qilinadi².

Alisher Navoiy asarlarida hukmdorning jamiyat oldidagi mas‘uliyati va adolat tamoyiliga alohida e‘tibor qaratiladi. Mutafakkir davlat boshqaruvida xalq manfaatlarini himoya qilish va adolatni ta‘minlashni hukmdorning muhim vazifalaridan biri sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, Navoiy qarashlari hokimiyat legitimligining ijtimoiy asoslarini, xususan xalq ishonchi va ijtimoiy qabul qilinish omillarini tahlil qilishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi³.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida legitimlik quyidagi uch asosiy komponentdan iborat:

- axloqiy legitimlik (rahbar fazilatlarini)
- adolat tamoyili
- ijtimoiy qabul qilinish (xalq ishonchi)

Mazkur komponentlar zamonaviy siyosiy tizimlarni tahlil qilishda ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy siyosiy tizimlarda hokimiyat legitimligi turli omillar orqali shakllanadi. Biroq ayrim davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, legitimlik faqat institutsional mexanizmlar bilan emas, balki ijtimoiy siyosat, barqarorlik va aholi ishonchi orqali ham mustahkamlanadi. Shu nuqtai nazardan, Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi o‘ziga xos model sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Sulton Qobus 1970-yilda hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng O‘monni qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tubdan o‘zgartira oldi. Uning siyosati keskin siyosiy transformatsiyalar emas, balki evolyutsion modernizatsiya tamoyiliga asoslandi. Aynan shu yondashuv hokimiyat legitimligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Sulton Qobus boshqaruvida legitimlikning asosiy manbalaridan biri — ijtimoiy siyosat bo‘ldi. Davlat tomonidan bepul ta‘lim tizimi joriy etildi, sog‘liqni saqlash tizimi rivojlantirildi, infratuzilma kengaytirildi. Natijada aholi farovonligi oshdi va davlatga nisbatan ishonch kuchaydi.

Bu holat Sharq mutafakkirlarining “xalq manfaatiga xizmat qilish”, “ijtimoiy adolat” tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi ko‘proq siyosiy muvozanat, mo‘tadillik va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Davlat boshqaruvida keskin repressiv usullardan ko‘ra ijtimoiy kelishuv va bosqichma-

² Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 41–44.

³ Navoiy A. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 61–67, Navoiy A. *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 78–84.

bosqich modernizatsiya tamoyillariga ustuvor ahamiyat berilgan⁴. Bu esa jamiyatda nisbatan barqaror siyosiy muhitni shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur holat Nizomulmulk tomonidan ilgari surilgan adolat va siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlarning zamonaviy siyosiy amaliyotdagi funksional ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin⁵.

O‘mon siyosiy tizimida demokratik institutlarning faoliyati cheklangan bo‘lishiga qaramay, hokimiyat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ijtimoiy muvozanat modeli shakllangan. Mazkur model davlat tomonidan ijtimoiy kafolatlar va aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan siyosat hamda jamiyat tomonidan siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga asoslanadi. Natijada, hokimiyatning ijtimoiy legitimligi nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Ushbu holat Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan xalq manfaatlariga xizmat qilish va adolatli boshqaruv tamoyillari bilan konseptual jihatdan uyg‘unlik kasb etadi.

Sulton Qobus ibn Said modernizatsiya jarayonini keskin siyosiy transformatsiyalar orqali emas, balki bosqichma-bosqich islohotlar asosida amalga oshirdi. Mazkur yondashuv jamiyatdagi ehtimoliy ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kamaytirishga hamda siyosiy tizimning izchil rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qildi. Natijada, O‘mon mintaqadagi nisbatan barqaror siyosiy tizimlardan biri sifatida shakllandi. Ushbu modelni shartli ravishda “ijtimoiy siyosat + evolyutsion modernizatsiya + ijtimoiy ishonch = barqaror legitimlik” formulasi orqali ifodalash mumkin. Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida hokimiyat legitimligi ijtimoiy barqarorlik, davlatning ijtimoiy siyosati, aholi ishonchi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur holat Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan axloqiy va ijtimoiy legitimlik tamoyillarining zamonaviy siyosiy amaliyotdagi funksional ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin.

Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan hokimiyat legitimligi haqidagi qarashlar hamda Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlikni ochib berishda qiyosiy tahlil muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nazariy siyosiy-falsafiy qarashlar va zamonaviy siyosiy amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlikni tahlil qilish imkonini beradi.

Xususan, Abu Nasr Forobiyning “fazilatli rahbar” haqidagi qarashlarida hokimiyatning barqarorligi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi rahbarning axloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Mutafakkirning fikricha, rahbarning adolatparvarligi, donoligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi davlat boshqaruvining muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy siyosiy amaliyotda esa Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi legitimligining nisbatan barqaror saqlanishi ijtimoiy siyosat, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlikni ta‘minlash kabi omillar bilan izohlanadi.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida legitimlikning axloqiy asoslariga urg‘u berilgan bo‘lsa, zamonaviy siyosiy amaliyotda ushbu tamoyillar funksional va institutsional

⁴ Valeri M. Oman: *Politics and Society in the Qaboos State* (Qobus davridagi O‘mon: siyosat va jamiyat). – London: Hurst, 2009. – P. 45–62.

⁵ Nizomulmulk. *Siyosatnoma*. – Toshkent: Adolat, 1997. – B. 32–35.

mexanizmlar orqali namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shu jihatdan, mazkur ikki yondashuv o‘rtasida konseptual uyg‘unlik mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Nizomulmulk ta’limotida adolat davlat barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Mutafakkirning fikricha, boshqaruv tizimida adolat tamoyilining buzilishi jamiyatdagi norozilik kayfiyatining kuchayishiga hamda siyosiy tizim barqarorligining zaiflashishiga olib keladi.

Zamonaviy siyosiy amaliyotda esa Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi davrida adolat tamoyili hududlar o‘rtasida nisbatan muvozanatli rivojlanishni ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar tizimini kengaytirish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan siyosat orqali namoyon bo‘lgan. Shu jihatdan, Nizomulmulk qarashlarida adolat ko‘proq axloqiy-siyosiy tamoyil sifatida talqin qilinsa, Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida u ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi amaliy boshqaruv mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy qarashlarida davlat boshqaruvining barqarorligi xalq manfaatlariga xizmat qilish va adolat tamoyili bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Mutafakkir hukmdorning jamiyat oldidagi mas’uliyatiga alohida e’tibor qaratib, xalq manfaatlarini himoya qilish hokimiyatning muhim ma’naviy asoslaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

O‘mon siyosiy tajribasida esa davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ijtimoiy muvozanat modeli shakllanganligi kuzatiladi. Ushbu model davlat tomonidan ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishi, aholi tomonidan siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi omillarga asoslanadi.

Natijada hokimiyatning ijtimoiy legitimligi nisbatan barqaror saqlanib qolgan. Shu jihatdan, Alisher Navoiy qarashlaridagi xalq manfaatlari va adolatli boshqaruv tamoyillari zamonaviy siyosiy amaliyotdagi ijtimoiy legitimlik mexanizmlari bilan konseptual jihatdan uyg‘unlik kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari jamiyat taraqqiyotini keskin siyosiy transformatsiyalar orqali emas, balki muvozanat, uyg‘unlik va izchillik asosida tasavvur qilganlar. Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi davrida ham modernizatsiya jarayoni:

- bosqichma-bosqich islohotlar,
- ijtimoiy barqarorlikni saqlash,
- an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanat asosida amalga oshirilgan.

Shu sababli, mazkur yondashuvni Sharq siyosiy-falsafiy tafakkuridagi muvozanat va ijtimoiy uyg‘unlik tamoyillarining zamonaviy siyosiy amaliyotdagi funksional ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin qilish mumkin.

Sharq mutafakkirlari qarashlarida ilgari surilgan hokimiyat legitimligining axloqiy tamoyillari zamonaviy siyosiy amaliyotda ham o‘zining funksional ahamiyatini saqlab qolmoqda. Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida bu holat ijtimoiy barqarorlik, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanat hamda ijtimoiy legitimlik mexanizmlari orqali namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Sharq mutafakkirlari ta’limotida hokimiyat legitimligi masalasi murakkab va ko‘p qirrali siyosiy-falsafiy tushuncha sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk hamda Alisher Navoiy qarashlarida hokimiyatning barqarorligi va jamiyat tomonidan qabul qilinishi rahbarning axloqiy fazilatlarini, adolat tamoyiliga amal qilishi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan qiyosiy tahlillar mazkur nazariy qarashlarning ayrim jihatlari zamonaviy siyosiy tizimlarda ham o‘zining funksional ahamiyatini saqlab qolayotganini ko‘rsatdi. Xususan, Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida hokimiyat legitimligining nisbatan barqaror saqlanishi:

- davlatning ijtimoiy siyosati,
- siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash,
- aholi ishonchini mustahkamlash kabi omillar bilan izohlanadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan hokimiyat legitimligining axloqiy va ijtimoiy tamoyillari zamonaviy siyosiy amaliyotda ham muayyan funksional mazmun kasb etadi. Bunda nazariy qarashlar amaliy boshqaruv mexanizmlari orqali namoyon bo‘lib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

- Sharq mutafakkirlari ta’limotida hokimiyat legitimligining muhim asoslari axloqiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq;
- zamonaviy siyosiy tizimlarda legitimlik faqat institutsional mexanizmlar bilan emas, balki ijtimoiy legitimlik omillari bilan ham belgilanadi;
- Sulton Qobus ibn Said boshqaruvi misolida adolat, ijtimoiy siyosat va barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi;
- evolyutsion modernizatsiya va ijtimoiy muvozanatni saqlash siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, Sharq siyosiy-falsafiy merosi zamonaviy siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda muhim nazariy manba sifatida ahamiyat kasb etadi hamda davlat boshqaruvi va legitimlik masalalarini tadqiq etishda konseptual yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farobiy A.N. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
3. Navoiy A. *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Nizomulmulk. *Siyosatnoma (The Book of Government or Rules for Kings / “Hukmdorlik qoidalari kitobi”)*. – Toshkent: Adolat, 1997.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Otamuratov S. *Globalashuv va millat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
8. Ergashev I., Akramov Sh. *Siyosatshunoslik*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
9. To‘ychiyev T. *Siyosiy tafakkur tarixi*. – Toshkent: Universitet, 2015.
10. Valeri M. *Oman: Politics and Society in the Qaboos State* (Qobus davridagi O‘mon: siyosat va jamiyat). – London: Hurst, 2009. – P. 45–62.